



MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJIDA TEATRNING AHAMIYATI

Abdullayeva Muqaddas Baxtiyor qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish”
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada teatr san'atining madaniyat va san'at sohasidagi o'rni hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Teatr san'ati, madaniyat, san'at, jadid teatri, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy ta'sir, ijodiy ifoda, dramaturgiya, sahna san'ati, yosh avlod tarbiyasi, ijtimoiy ong, zamonaviy teatr.

Abstract: This article analyzes the role of theater in the field of culture and art and its socio-spiritual significance in the development of society.

Keywords: Theater, culture, art, modern theater, aesthetic education, national values, spiritual and educational influence, creative expression, dramaturgy, performing arts, education of the younger generation, social consciousness, modern theater.

Teatr – insoniyat tarixida qadimdan buyon madaniyat va san'atning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Teatr san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrlarida ovchilik, mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhlariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil. avv. V asrdayoq Teatr jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Teatr orqali xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixiy voqealari, milliy an'analari sahna ko'rinishida namoyon qilinadi. Bu esa avlodlararo og'zaki va obrazli shaklda bilim, axloq, dunyoqarashni yetkazishda muhim vositadir. Ayniqsa, xalq teatrlarida bu jihatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Teatr asarlari ko'pincha jamiyatdagi muammolar, insoniylik, adolat, fidoyilik, muhabbat va xiyonat kabi mavzularni yoritadi. Tomoshabinlar obrazlar orqali ijobiy va salbiy xulq-atvor namunalarini ko'radi, saboq oladi. Bu yosh avlod tarbiyasida ayniqsa muhimdir.

Teatr (yun. Theatron – [tomoshagoh](#)) – san'at turi; uning o'ziga xos ifoda vositasi – aktyorning omma oldidagi o'yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san'atida ham boshqa san'atlarda bo'lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq holda o'zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og'zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr bu





ibrat maskani bo‘lib, inson ma‘naviy dunyosini yanada takominlashtirish yanada keng fikrlash, rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Biron bir spektaklni tomosha qilishga borar ekanmiz saahna asarini jonli tarzda tomosha qilib o‘zimizni o‘sha olamga tushib qolgandek his qilamiz.

Bugungi globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida milliy madaniyatni asrash, boyitish hamda uni jahon miqyosida tanitishda san‘atning, xususan, teatr san‘atining o‘rni beqiyosdir. Teatr inson tafakkuri, his-tuyg‘ulari va ma‘naviy dunyosini shakllantirishda, uni estetik didga, axloqiy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda o‘ziga xos ta‘sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida teatr san‘ati jamiyat hayotida muhim ijtimoiy-ma‘naviy maskan sifatida namoyon bo‘lgan. U nafaqat badiiy-estetik asarlarni sahna orqali tomoshabinga yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki tarixiy ong, milliy o‘zlik va xalq ruhiyati ifodasining yorqin ko‘zgusiga aylangan.

Teatrning insoniyat taraqqiyotidagi roli ko‘p asrlik tarixiy jarayonlar davomida shakllangan bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlarga sezgirlik bilan munosabat bildirgan va bu orqali o‘zining dolzarbligi va zarurligini namoyon qilib kelgan. Ayniqsa, XX–XXI asrlarda teatr san‘ati faqatgina an‘anaviy ijro shakllari bilan emas, balki zamonaviy texnologiyalar, yangi dramaturgiya uslublari, murakkab sahna yechimlari orqali yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu esa teatrni yanada ommaviylashtirish, keng auditoriyaga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratdi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy san‘at va madaniyatni tiklash va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar doirasida teatr san‘atiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Teatrlar zamonaviy infratuzilma bilan ta‘minlandi, professional kadrlar tayyorlash, dramaturgiya maktabini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali teatr sohasida tub o‘zgarishlar yuz berdi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, teatr nafaqat madaniy-ma‘rifiy, balki ijtimoiy-psixologik vazifalarni ham bajaradi. U orqali jamiyatda muhim muammolar ko‘tariladi, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, erkinlik, fidoyilik kabi umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Teatr tomoshabin bilan bevosita muloqot qilish orqali uni fikrlashga, tahlil qilishga, hayot voqeliklarini chuqur anglashga undaydi. Shuningdek, u yosh avlod tarbiyasida, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Teatr qadim Gretsiyada diniy marosimlardan shakllangan. Aytishlaricha, teatr Dionis xudosi sharafiga o‘tkazilgan bayramlardan boshlangan. Keyinchalik Rim, Hind, Xitoy, Arab va Markaziy Osiyo hududlarida turli teatr shakllari rivoj topdi.





O‘zbek teatr san’ati esa XIX asr oxirlarida, jadidlar davrida, ma’rifiy teatr sifatida shakllanib, bugungi kunda zamonaviy sahna san’atining ajralmas bo‘lagiga aylangan.

Teatr jadidlar nazdida, avvalo, „ulug‘lar maktabi“, „ibratxona“ bo‘lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma’rifat, ilm olmoq g‘oyasini targ‘ib etishi ko‘zda tutilgan edi. Ikkinchidan esa, ma’rifiy va ko‘ngilochar tomoshlalar oraqali mablag‘ topib, maorif, matbuot ehtiyojlariga sarflamoq ko‘zlangan edi. Turkistonda tatar, ozarbayjon, rus sayyor teatr jamoalarining kirib kelishi ovro‘pacha o‘zbek milliy teatr san’atining tug‘ilishiga turtki berdi. O‘zbekiston hududida birinchi professional teatr 1913-yilning o‘rtalarida Toshkent shahrida shakllanib, 1914-yilning boshlarida ilk milliy pyesa – tomoshani sahnaga qo‘ygan va shu tariqa rasman faoliyat boshlagan va dastlab „truppa“ deb atalgan.

Jadidlar o‘z g‘oyalarini keng ommaga yetkazish uchun turli vositalardan foydalanganlar, ularning eng samaralilaridan biri teatr edi. Jadidlar teatrni xalqni uyg‘otish, savodli va ongli jamiyat qurish vositasi sifatida ko‘rishgan. Bu teatrlar:

Yangi mavzularni ko‘tarishgan: millat, ozodlik, ma’rifat, ayollar erkinligi, ilmfan.

Diniy va eskicha tushunchalarga tanqidiy yondashishgan.

Turkiston xalqlari uchun teatrni tarbiyaviy maktabga aylantirishga harakat qilishgan. Bu orqali savodsiz xalqning ham fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlarini olib borganlar.

Jadid teatrining xususiyatlari

Didaktik (o‘rgatuvchi) xususiyat: Asarlar orqali ma’rifat, milliy uyg‘onish, ayollar erkinligi targ‘ib qilinadi.

Realizm: Hayotiy voqealar, xalq ichidagi muammolar ko‘rsatilgan.

Sahnaviy soddalik: Oddiy dekoratsiyalar, xalq orasidan chiqqan aktyorlar.

Til: Sodda, xalqqa tushunarli o‘zbek tili ishlatilgan.

Jadidlar tomonidan boshlangan teatr harakati, aslida, oddiy san’at emas, balki jamiyatni uyg‘otuvchi, uni ilg‘or fikrlarga yetaklovchi kuchli vosita sifatida yuzaga chiqqan edi. Ularning asarlarida ko‘tarilgan mavzular – ma’rifat, adolat, ayol huquqlari, jaholatga qarshi kurash – bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Vaqt o‘tishi bilan o‘zbek teatri shaklan, usluban, janran jihatdan rivojlandi, zamonaviylikka yuz tutdi. Ammo mohiyatda – xalq qalbini uyg‘otish, uni fikrlantirish, jamiyatdagi og‘riqli masalalarni yoritish vazifasi hanuz saqlanib qolmoqda. Bu jihatdan qaralganda, bugungi teatrlar – jadidlar boshlab bergan an’ananing mantiqiy davomidir. Bugungi teatrlar ham murakkab ijtimoiy vazifalarni bajarib kelmoqda. Toshkentdagi O‘zbek Milliy Akademik Drama teatri, Yosh tomoshabinlar teatri,





viloyatlardagi drama va musiqali teatrlarda sahnalashtirilayotgan asarlarda zamonaviy mavzular, yoshlar muammosi, axloqiy qadriyatlar, ma'naviyat, milliylik va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar ko'tarilmoqda.

Teatrlar va uni boshqarayotgan rahbarlar – direktor, bosh rejissorlarning faoliyatini ijobiy baholash mumkin. To'g'ri har yili rejaga muvofiq ma'lum bir spektakllar sahnalashtiriladi, ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra teatrlarga yil davomida spektakl tomosha qilish uchun keluvchilar soni juda kam foizda. Yangi qarorda aynan teatrlarning reytinggi e'lon qilinishi borasidagi yangilik ham o'ylaymanki teatrlarning sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Katta reja va maqsadlarni o'ylab shunga qarab intilish tinmay izlanish kerak. Direktor teatrning moddiy texnik bazasini yaxshilash, yosh iste'dodli kadrlarni kashf qilish, tijoratlashtirish masalasini yo'lga qo'yish, gastrol safarlarini amalga oshirish kabi tashkiliy masalalarni hal qilishi kerak. Badiiy rahbar esa ijodiy tomondan teatr nufuzini oshirish, jamiyat va xalqimizga aynan bugungi kunda zarur bo'layotgan ma'naviy ozuqani berishga mos spektakllarni sahnalashtirish ustida o'ylashi lozim.

Bugungi kunda teatrga tashrif buyuruvchilar soning kamayishi achinarli holat desak adashmagan bo'lamiz. Teatrta targ'ibotni kuchaytirish uchun nimalar qilishimiz kerak.

Yoshlar auditoriyasiga mos spektakllar yaratish

Zamonaviy mavzularni yoritish: ijtimoiy tarmoqlar, sevgi, ruhiy salomatlik, texnologiya, ijtimoiy tenglik.

Yengil, qiziqarli, dinamik syujetli va qisqa davom etadigan spektakllar sahnalashtirish.

Stand-up, improvizatsiya, monodrama kabi erkin shakllarni qo'llash.

Ijtimoiy tarmoqlarda faol targ'ibot

Instagram, TikTok, Telegram, YouTube kabi platformalarda spektakl treylari, sahna orti lavhalar, aktyorlar bilan qisqa intervyular joylashtirish.

Blogerlar va ta'sirchan shaxslar bilan hamkorlikda reklama qilish.

Online chiptalar sotuvini soddalashtirish.

Maktab va universitetlar bilan hamkorlik

Talabalar uchun chegirmali chipta tizimi joriy etish.

O'quvchilarni teatrta olib kelish uchun teatr haftaliklari, tanlovlar, master-klasslar tashkil etish.

Darslarda teatr asarlari o'qitilayotganda spektakllarga bog'lash.

Chipta narxlarini moslashtirish va aksiyalar o'tkazish

Talabalar, o'quvchilar, katta yoshdagilar uchun arzon chipta variantlari.

“2 ta chipta ol — 1 ta bepul” kabi aksiyalar.





Teatrni o'rganish va tushunishni osonlashtirish

Har bir spektakldan oldin qisqa tanishtiruv, spektakl g'oyasini tushuntirish.

Sahna orti jarayonlarini tomoshabinga ko'rsatish (ochiq mashg'ulotlar, ekskursiyalar).

Yoshlar bilan muloqotlar, bahs-munozaralar o'tkazish.

Yangi, innovatsion shakllar joriy etish

Interaktiv spektakllar (tomoshabin voqeaga ta'sir qiladi).

Mobil teatr – turli joylarda sahnalashtiriladigan spektakllar (parklarda, metrolarda).

Multimedia teatrlar – musiqiy, raqamli, lazerli effektlar bilan boyitilgan tomoshalar.

Hamkorliklar orqali kengayish

Kafe, kutubxona, madaniyat markazlari bilan hamkorlikda tadbirlar o'tkazish.

Tijorat tashkilotlari bilan reklama va homiylik asosida teatrni qo'llab-quvvatlash.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki bugungi kunda teatr san'ati raqobatbardosh ko'ngilochar vositalar orasida o'z o'rnini saqlab qolish va keng auditoriyani jalb etish uchun yangilanishga muhtoj. Ayniqsa, yoshlar orasida teatrga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun zamonaviy mavzular, texnologiyalar, va interaktiv shakllardan foydalanish muhimdir. Teatrlar o'z faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda faol targ'ib etishi, yoshlar uchun qulay narx siyosatini yo'lga qo'yishi va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlashi lozim.

Shuningdek, tomoshabin bilan yaqin aloqada bo'lish, spektakllarni tushunarli va zamonga mos shaklda taqdim etish teatrga tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirishga xizmat qiladi. Teatr — bu nafaqat san'at, balki jamiyat tarbiyasi va ma'naviy o'sish manbai sifatida doimiy ravishda rivojlanishi kerak bo'lgan maydondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ikromov H. Davr va teatri. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti., 2009. – 240 b.
2. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Shark nashriyot-matbaa Bosh taxiriyati haqida., 1997.-320 b.
3. Sayfullaev B, Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – T: Fan va texnologiya, 2012. 13-14 b.
4. Tursunov T. XX asr o'zbek tarixi teatri (1900-2007). – Toshkent: Badiiy nashr., 2010.-568 b.





5. J. Sobirov. O‘zbek teatr tarixi. International journal of recently scientific researcher’s theory.
6. Sh. Mirzayeva. Jadid marifatparvarlari davrida o‘zbek teatrining ilk bosqichi. “Falsafa va insoniyat,o‘tmishi, hozirgi zamon, kelajak” ilmiy nazariy anjuman. Alfraganus University.www.oriens.uz. 2024.
7. M. Rashidov. Teatr san’ati rivojlanishining zamonaviy tamoillari. Artand Design, Social Science, Volume 04, Issue 06, 2024.
8. Avazovich, Shodiyev Boltaboy. "ISSUES OF ESTABLISHING COOPERATION WITH FOREIGN THEATERS IN MANAGING THE CREATIVE ACTIVITY OF UZBEKISTAN STATE THEATERS." *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE* 3.5 (2025): 36-44.
9. Xayriddinova, Asal Farhod Qizi, and Mo‘Minmirzo Xolmo‘Minov. "TEATR VA AKTYORLIK SAN’ATI." *Oriental Art and Culture* 3.4 (2022): 174-177.
10. O‘G‘Li, Mo‘Minmirzo Zokir. "TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 57-62.
11. Fayziyev, To‘rabek Raufovich, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "TEATR VA KONSERT TOMOSHOLARINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 50-56.
12. Samiyev, Baxtiyor Norbobo O‘G‘Li, and Mo‘Minmirzo Xolmo‘Minov. "YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUVGA DOIR QARASHLARI VA AXLOQIY O‘GITLARI." *Oriental Art and Culture* 4.2 (2023): 359-364.
13. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *image* 4.89 (2021): 90.
14. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "Mufassal mushohadalar me‘moridan mufassal mushohadalar meroji." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
15. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.





16. Samiyev, Baxtiyor. "INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.5 (2024): 522-525.
17. Baxtiyor, Samiyev. "THEORETICAL ANALYSIS OF THE CURRENT ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 11.05 (2024).
18. Abdullayeva, Muqaddas Baxtiyor Qizi, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA BOSHQARUV SAN‘ATIGA DOIR QARASHLARI." *Oriental Art and Culture* 4.2 (2023): 43-48.
19. Muqaddas, Abdullayeva. "IMPROVING MANAGEMENT ACTIVITIES IN CULTURAL CENTERS." *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE* 3.3 (2025): 59-63.
20. Norbobo o‘g‘li, Samiyev Baxtiyor. "MADANIY XIZMATLAR VA IJODIY ISHLAB CHIQRISHNING NAZARIY ASOSLARI." *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research* 1.5 (2024): 464-472.

